



UDK:1:111:378 (572.9)

*Sarvar SAIDOV,*

*Doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston*

*E-mail: sarvarsaid@bk.ru*

*PhD U.Ergashev taqrizi asosida*

### ABDULLOH IBN MUQAFFA AXLOQIY-FALSAFIY QARASHLARI SHAKLLANISHIDA ILMIY-MADANIY MUHIT TA'SIRI

Аннотация

Musulmon falsafasining zabardast vakillaridan biri hisoblangan Abdulloh ibn Muqaffa VIII asrda yashagan, islom siyosat falsafasi shakllanishiga katta hissa qo'shgan allomalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada alloma axloqiy-falsafiy qarashlarining genezisi, dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir qilgan omillar, boshqa xalqlar madaniyatining Islom tamadduni rivojida roli misollar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, alloma mansub bo'lgan fors sivilizatsiyasi ilmiy-falsafiy yutuqlarining islom falsafasi bilan dialektik aloqadorligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Islom falsafasi, fors, yunon, hind sivilizatsiyasi, Abdulloh ibn Muqaffa, axloq, falsafa, siyosat, siyosatnoma, nasihatnoma, umaviylar, abbosiylar, arab xalifaligi.

### ВЛИЯНИЕ НАУЧНО-КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУЛЛАХА ИБН АЛЬ-МУКАФФЫ

Аннотация

Абдуллах ибн аль-Мукаффа, считающийся одним из выдающихся представителей мусульманской философии VIII века, внёс значительный вклад в становление исламской политической философии. В данной статье рассматриваются генезис его нравственно-философских взглядов, факторы, оказавшие влияние на формирование его мировоззрения, а также роль культур других народов в развитии исламской цивилизации. Кроме того, анализируется диалектическая взаимосвязь научно-философских достижений персидской цивилизации, к которой принадлежал мыслитель, с развитием исламской философии.

**Ключевые слова:** исламская философия, персидская, греческая, индийская цивилизация, Абдуллах ибн аль-Мукаффа, этика, философия, политика, сиясатнаме, насихатнаме, Омейяды, Аббасиды, Арабский халифат.

### THE INFLUENCE OF THE SCIENTIFIC AND CULTURAL ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF ABDULLAH IBN AL-MUQAFFA'S ETHICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS

Annotation

Abdullah ibn al-Muqaffa, regarded as one of the prominent representatives of Muslim philosophy in the eighth century, made a significant contribution to the development of Islamic political philosophy. This article examines the genesis of his ethical and philosophical views, the factors that influenced the formation of his worldview, and the role of other cultures in the development of Islamic civilization. It also analyzes the dialectical relationship between the scientific and philosophical achievements of the Persian civilization, to which the scholar belonged, and the development of Islamic philosophy.

**Keywords:** Islamic philosophy, persian, greek, indian civilization, Abdullah ibn al-Muqaffa, ethics, philosophy, politics, siyosatnoma, mirrors for princes, Umayyads, Abbasids, Arab Caliphate.

**Kirish.** VIII asr Islom tarixida, ilm-fan va falsafiy tafakkur taraqqiyotida nihoyatda sermahsul davr hisoblanadi. Aynan ushbu asrda arab xalifaligi tomonidan amalga oshirilgan fathlar xalifalik hududining nihoyatda kengayishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida bo'ysundirilgan xalqlar, xususan fors sivilizatsiyasining ilmiy-falsafiy sohalarida erishgan yutuqlari musulmon jamiyatiga kirib kela boshladi. O'z navbatida fors sivilizatsiyasi yunon va hind sivilizatsiyalari yutuqlarining islom olamiga kirib kelishiga o'ziga xos bir ko'prik vazifasini bajardi. Sosoniy hukmdor Xusrav I Anushervon tomonidan ilm-fanga qaratilgan kuchli e'tibor antik davr yunon faylasuflari – Afloton, Aristotel asarlari, hind tamaddunining durdonasi – “Kalila va Dimna” dostonining eski fors – pahlaviy tiliga tarjima qilinishiga imkon yaratgan. Fors o'lkasi zabt etilgach, sekin-asta ushbu yutuqlar islom jamiyatiga kirib kela boshladi. VIII asr o'rtalarida esa ushbu jarayon nihoyatda tezlashdi. Arab xalifaligida markaziy hokimiyatning abbosiylar sulolasi qo'lga o'tishi musulmon jamiyatida o'zga xalqlar madaniyati yutuqlarining kirib kelishiga qulay imkoniyat yaratdi. Bu

borada ikkinchi abbosiy xalifa – Abu Ja'far al-Mansur tomonidan ilm-fanga qaratilgan yuksak e'tibor, tarjimonlarga nisbatan g'amxo'rlik muhim omil bo'ldi.

Abbosiy xalifalar orasida xalifa Mansurning ilmga moyilligi kuchli bo'lib, u hadis va she'riyat ilmini nihoyatda sevgan, shoirlarning ijodiga tanqidiy yondoshgan. Biz xalifa Mansur hukmronlik davrini ilm-fanni eng yuqori darajada qadrlash va Abbosiylar davlatidagi fan tarmoqlarini rivojlantirish harakati bilan bog'lashimiz mumkin. Bu davrga kelib xalifa ilmiy muhit uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va uning kuchidan mamlakat qudratini rivojlantirish yo'lida foydalandi. Xalifa Mansur zabt etilgan xalqlar madaniyatiga tegishli bo'lgan buyuk klassik an'analar bilan chuqur aloqalar o'rnatdi. 1070-yilda vafot etgan arab tarixchisi Soid Andalusiy xalifaning ilmga bo'lgan yuksak darajadagi e'tiborini tasdiqlaydi: “Bu davrda ruhning portlashi va aqlning uyg'onishi sodir bo'ldi. O'sha suloladan ilm-fanni rivojlantirgan birinchi xalifa Abu Ja'far al-Mansur bo'lib, u mantiqni chuqur bilishi bilan bir qatorda, falsafa va astronomiyaga ham juda qiziqqan”.

Xalifa Mansur hind, fors va yunon olimlari mumtoz asarlarining arab tiliga qilingan tarjimalarini muvofiqlashtirish orqali kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar yo'nalishini belgilab berdi. Abbosiylar davlati vakillari turli mamlakatlarga, shu jumladan Vizantiyaga Aflotun, Aristotel, Gippokrat va boshqa olimlarning kitoblaridan nusxalar olish uchun yuborilgan. Ushbu misollardan ko'rish mumkinki, Abbosiylar davlati birinchi abbosiy xalifalari ilgari surgan madaniy taraqqiyotning siyosiy loyahasini ilgari surishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Shu bilan birga, ushbu sulola vakillari markaziy hokimiyat qudratini saqlab qolish imkonini beruvchi strategik ma'lumotlarni ishlab chiqarishni moliylashtirish orqali soha rivojiga poydevor qo'ydi.

Markaziy hokimiyat tomonidan ilm-fanga qaratilgan yuksak e'tibor natijasida mahoratli tarjimonlar bu davrda ilm-fanda inqilobiy jarayonlarning yuzaga kelishi, dunyo ilm-fan yutuqlarining o'zaro sintezlashuviga bebaho hissa qo'shdilar. Bu esa o'z navbatida IX asrda boshlanib, XII asrgacha davom etgan, insoniyat tarixida "Birinci Renessans" nomi bilan mashhur bo'lgan musulmon olamidagi uyg'onish jarayonining yuzaga chiqishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Ushbu davrda yashagan allomalar orasida, shubhasiz, Abdulloh ibn Muqaffa (724-759-yy.)ning alohida o'rni bor. Ushbu mutafakkir o'zining qisqa umri davomida Aristotelning mantiq ilmiga oid "Analitika", "Kategoriyalar" kabi asarlarini, hind axloqiy-falsafiy merosining yorqin namunasi hisoblangan "Kalila va Dimna" dostonini, fors davlatchilik tarixidan hikoya qiluvchi "Xudoynoma", "Kitob at-toj", "Oyinnoma", "Kitob Tansar" kabi asarlarni arab tiliga tarjima qildi. Bu esa o'z navbatida musulmon falsafasida siyosiy axloq bilan bog'liq yangidan-yangi g'oyalarning shakllanishiga xizmat qildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Abdulloh ibn Muqaffaning ilmiy-falsafiy qarashlari, mutafakkir ilmiy merosi shakllanishida musulmon axloqiy-falsafiy tafakkurining ta'siri bugungi kunga qadar juda ko'plab tadqiqotlar uchun asosiy mavzu bo'lib xizmat qilgan. Xususan, klassik davr musulmon olimlaridan Abdulloh ibn Muslim Qutaybaning "Uyun al-axbor", Ibn Nadimning "Fihrist", Soid Andalusiyning "Tabaqot ul-umam" kabi asarlarida, zamonaviy davr tadqiqotchilaridan Abdullatif Hamza, Xanna Faxuri, Abbas Iqbol Ashtiyoniy, g'arb tadqiqotchilaridan esa I.Filshtinskiy, B.Shidfar, Ch.Pellat, Sh.Goyteyn, F.Gabriyeli, H.Ayyadi kabilar Abdulloh ibn Muqaffaning ilmiy-falsafiy merosi, axloqiy risolalari, u yashagan davrdagi mafkuraviy jarayonlar, ilmiy-falsafiy bahsmunozaralar borasida samarali izlanishlar olib borganlar. Mazkur tadqiqotlar alloma yashagan davrdagi ilmiy jarayonlar transformatsiyasi borasida to'liqroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Abdulloh ibn Muqaffa axloqiy-falsafiy qarashlari shakllanishida ilmiy-madaniy muhit ta'sirini ochib berishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan germeneytik tahlil, analogik tahlil, analiz, sintez kabi metod va usullaridan samarali foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** VIII asrga kelib islom ilm-fanining taraqqiyotida fors, yunon, hind, suryoniy madaniyatlarining ta'siri yuqori darajada bo'ldi. Islom madaniyatiga hind madaniyatining unsurlari asosan ikki yo'nalish orqali kirib keldi. Birinchi yo'nalish islom fathidan keyin hindlarning o'zlarini orqali kirib kelgan unsurlardir. Ikkinchi yo'nalishda esa hind madaniyati va ilmiy-falsafiy ta'limotlarining ba'zi unsurlari makedoniyalik Iskandar fathidan keyin hind falsafasidan ta'sirlangan fors olimlari orqali islom madaniyatiga kirib keldi. Islom fathidan keyin fors olimlari hind madaniyatining elementlari bilan fors madaniyatini o'zaro aralashtirib, uning yoyilishiga hissa qo'shdilar. Ular she'riyat, tibbiyot va astronomiya sohasidagi amaliyotlari bilan mashhur

edilar. Olimlarning fikriga ko'ra, hozirda "Kalila va Dimna" deb nomlanadigan kitobning asl nusxasi Hindistonda yaratilgan hamda keyinchalik pahlaviy tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu kitobga bir necha bob qo'shilgan. Ushbu asar Abbosiylar xalifaligi davrida Abdulloh ibn Muqaffa tomonidan arab tiliga tarjima qilindi.

Barcha tadqiqotchilar yakdil tarzda islom tamadduniga eng asosiy ta'sir fors va yunon madaniyatlari tomonidan bo'lganligini e'tirof etadilar. Davlat boshqaruvi, adab ilmi, axloq borasida forslarning ta'siri yuqori bo'lgan bo'lsa, falsafa va hikmat borasida yunonlarning ta'siri kuchli bo'ldi. Xilmaxil madaniyatlarining o'zaro sintezlashuvi natijasida Abbosiylar davrida islom tamadduniga xos bo'lgan yuksak darajadagi madaniyat vujudga keldi. Ammo yunon va fors madaniyatlarining qaysi biri islom falsafiy tafakkuriga chuqurroq iz qoldirgan, degan masalada kuchli tortishuvlar mavjud.

Doktor Husayn Tohaning fikriga ko'ra, garchi forslardan ko'p kitoblar islom ilm-faniga kirib kelgan bo'lsa-da, yunonlarning ta'siri forslardan kuchliroq hisoblanadi. Zero, yunon madaniyati qadim tarixga ega bo'lib, miloddan avvalgi III asrda makedoniyalik Iskandarning ushbu hududlarga kirib kelishi bilan shakllana boshlagan hamda yunon tili Yaqin Sharqda joylashgan hududlarda rasmiy til maqomiga erishgan. Qadimdan Misr, Suriya va Iroq kabi Yaqin Sharq mamlakatlarida falsafa, adab ilmlarini o'rgatuvchi yunon maktablari mavjud bo'lgan.

VIII asrga kelib yunon falsafasi bilan bevosita aloqador bo'lgan musulmon falsafasi boshqa tabiiy va aniq fanlarga nisbatan jadalroq rivojlana boshladi. Islom madaniyatida yunon madaniyatiga xos unsurlar, yunon ratsionalizmi elementlari kirib keldi. Musulmon olimlar Aflotun va Arastu asarlari orqali yunonlarning falsafaga oid hikmatlaridan iqtibos olganlar, ularning aksariyati umaviylar va abbosiylar xalifaligi davrida arab tiliga tarjima qilindi.

Bu davrda yunon falsafasi, xususan mantiq ilmiga oid asarlarni arab tiliga tarjima qilish jarayoni bevosita fiqh ilmi bilan ham bog'liq edi. Ma'lumki, VIII asrda musulmon jamiyatida fiqh ilmi hali shakllanish bosqichida bo'lib, analogik xulosa, ya'ni qiyos orqali hukm chiqarish amaliyotida turli chalkashliklar mavjud edi. Bu esa musulmon olamidagi mantiq ilmining taraqqiyotiga turki berdi. Ushbu amaliy ehtiyojdan kelib chiqqan holda Abdulloh ibn Muqaffa yuqorida zikr qilingan Aristotelning mantiq ilmiga oid asarlarini arab tiliga tarjima qildi. Bu orqali mantiq ilmi rivojiga katta hissa qo'shganligini bir qator musulmon allomalari o'z asarlarida e'tirof etadilar. Xususan, Soid Andalusiyning "Tabaqot ul-umam" asarida bu borada shunday ma'lumotlar keltiriladi:

"Arastuning mantiqqa oid asari Abbosiylar davlatida faoliyat ko'rsatgan fors notig'i Abu Ja'far al-Mansurning kotibi Abdulloh ibn al-Muqaffaga mashhurlik olib keldi. U Arastuning mantiqqa oid uchta kitobini, Porfiriyning "Isog'uchi" nomi bilan mashhur bo'lgan "Mantiqqa kirish" asarini arab tiliga yengil iboralar bilan, asl manbaga juda yaqin tarzda tarjima qilgan. Shuningdek, "Kalila va Dimna" nomi bilan mashhur bo'lgan hindlarning dostonini birinchi bo'lib fors tilidan arab tiliga tarjima qilgan" [1].

Ushbu tarixiy ma'lumot o'z navbatida islom jamiyatida mantiq ilmiga bo'lgan amaliy ehtiyojlar hamda mazkur ehtiyojlarining qondirilishida Abdulloh ibn Muqaffa faoliyatining ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Abbosiy xalifalari o'zlarining oqilona siyosati bilan nodir asarlarni yunon tilidan arab tiliga tarjima qilish orqali ilm-fan va bilimlarning ravnaqi uchun katta xizmat qildilar. Tarjima asrining boshlarida abbosiy xalifalarining maqsadi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirish, uni arab tiliga tarjima qilish hamda ushbu tarjimalarni to'ldirgan holda, islom

tamadduni taraqqiyoti yo'lida xizmat qildirish edi. Yunonlar islom madaniyatini mantiq, tibbiyot, handasa, astronomiya va falsafa kabi ilmlar bilan boyitdi. Biroq, arablar va yunonlar o'rtasidagi aloqalar bevosita bo'lmay, balki tarjima orqali amalga oshdi. Shubhasiz, abbosiylar davrida yashagan olim va tarjimonlar yunon madaniyatining yutuqlaridan keng foydalandilar, ammo ular bu bilan cheklanib qolmay, yunon bilimlarini arab-musulmon bilimlari bilan birlashtirishda jonbozlik ko'rsatdilar.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilar esa islom tamaddunida forslarning ta'siri yunonlarga nisbatan kuchliroq bo'lganligini ta'kidlaydilar. Forslar islom adab ilmida katta mavqega erishib, unga beqiyos ta'sir ko'rsatdilar. Natijada islom va fors madaniyatlarining o'zaro birikuv natijasida o'zgacha bir yuksak madaniy jarayon vujudga keldi. Abbosiylar davrida vazirlik, kotiblik kabi muhim davlat lavozimlariga forslarning qo'yilishi, davlat boshqaruv tizimida devonlarning uzil-kesil tatbiq qilinishi bu davrdagi davlat boshqaruv tizimida forslarning ta'sirini yaqqol ko'rsatib beradi. Davlat boshqaruv jarayonlarining qadimiy fors davlatchilik an'alariga xos tarzda olib borilishida esa Abdulloh ibn Muqaffa, Barmakiylar

oilasi, Navbaxt oilasi vakillari tomonidan fors davlatchilik tajribalarini o'zida jamlagan ko'plab nodir asarlarning arab tiliga tarjima qilinganligi muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Umuman aytganda, musulmon falsafasi tarixida adab ilmining dastlabki namoyandalaridan biri, "al-Adab al-kabir", "al-Adab as-sag'ir", "Risola as-sahoba" kabi asarlari bilan siyosatnoma an'alarini boshlab bergan mutafakkir Abdulloh ibn Muqaffaning ilmiy faoliyati falsafa, siyosat, kitobat va tarjima ilmlari bilan bevosita bog'liq holda olib borildi. Ilmiy faoliyatidagi serqirralilik esa alloma tafakkurida o'z davridagi muammo va masalalarni teran anglash va ularni tanqidiy ruhda, falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini berdi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, Abdulloh ibn Muqaffa va u yashagan muhitdagi ilmiy-falsafiy jarayonlarni tahlil qilish musulmon falsafasi, siyosiy axloq tarixi, adab ilmining jamiyat va davlat ma'naviy kamolotidagi ahamiyati borasida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Alloma asarlarida ilgari surilgan adolat, do'stlik, bag'rikenglik, halollik kabi axloqiy tamoyillarni amaliyotga joriy qilish esa o'z navbatida yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Soid Andalusiy. Tabaqot al-umam. – Bayrut: Katolik matbuoti, 1912. – B. 49
2. Abbas Iqbol Ashtiyoniy. Sharhe hole Abdulloh ibn al-Muqaffa. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1927. – 122 b.
3. Abdulloh ibn al-Muqaffa. Al-Adab al-kabir va al-adab as-sag'ir. Tarjimon: Muhammad Vahid Gulpayegoniy. – Tehron: 1956. – 137 b.
4. Husayn Toha. Min hadis she'r va nasr. – Qohira: Dorul maorif, 2012.
5. Ismail Durmuş. Ibnü'l-Mukaffâ'. TDV Islâm Ansiklopedisi. – Istanbul: Türkiye. Diyanet Vakfi, 2000. C. 21. – ss. 130-34.
6. Kalila va Dimna / G'aniyeva S. tarj. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. –154 b.
7. Muhammad G'ufroniy. Sharhe hole va asar Ibn Muqaffa. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1937. – 393 b.
8. Mustafa Demirci. "Emevilerden Abbâsilere Geçiş Sürecinin Bir Tanığı: Abdullah İbnü'l-Mukaffâ ve "Risaletu's-Sahabesi" Dokuz Eylül Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. Sayı: XXI, — İzmir: 2005. – ss. 120-148.
9. Shelomo Dov Goitein. Studies in Islamic history and institutions. – Leiden: Koninklijke Brill NV incorporates the imprints Brill. Hotei Publishing, 2010. – P. 415.
10. Soid Andalusiy. Tabaqot al-umam. Katolik matbuoti, – Bayrut: 1912. – 158 b.